www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING O‘Z USTIDA ISHLASH FAOLIYATI MA’NAVIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISH MEZONI SIFATIDA

Mamajonov O'tkirbek Tajiddinovich
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professoro‘qituvchilarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash faoliyati ma’naviy kompetentlikni oshirish mezonlari haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar:ta’lim tizimi, o‘quv-tarbiya jarayoni, huquqiy asos, mafkuraviy immunitet, yuksak axloq, kasbiy kompetentlik, mas’uliyat, ma’naviy kompetentlik.
Аннотация:В статье рассматривается система образования, включающая совершенствование правовых основ организации учебно-воспитательных процессов в высших учебных заведениях, “укрепление идеологического иммунитета учащихся-молодежи, воспитание у них высоких нравственных качеств, гармонизацию их человеческих качеств с профессиональной компетентностью, повышение воспитательной ответственности профессорско-преподавательского состава, повышение моральной компетентности трудовой деятельности будущих педагогов над собой". критерии упоминания.
Ключевые слова:система образования, Учебно-воспитательный процесс, правовая основа, идеологический иммунитет, высокая нравственность, профессиональная компетентность, ответственность, духовная компетентность.
Annotation. The article will talk about the improvement of the legal framework for the organization of educational and educational processes in higher educational institutions, “strengthening the ideological immunity of students and young people, raising high moral qualities in them, harmonizing human qualities with their professional competence, increasing the educational responsibility of professors, increasing the spiritual competence of future teachers ' activities on their own.
Keywords:educational system, educational process, legal basis, ideological immunity, high morality, professional competence, responsibility, spiritual competence.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati[1] kabilar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professor o‘qituvchilarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish,

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020). // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minlash”[2] kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor anjumanida Yurtboshimiz bugungi ma’naviy hayotimizni chuqur tahlil etib: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”, deya ta’kidladilar.

Globollashuv jarayonlarida dunyo oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatining aksiologik[3] hamda deontologik[4] mexanizmlarini hamda ma’naviyat va madaniyat uyg‘unligida shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish, natijadorligi kafolatlangan ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-emotsional va ma’naviy-axloqiy malakalarni tarkib toptirish modellari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalar ma’naviy kompetentligining rivojlanligini tashxis etishning interaktiv tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH, Singapur, Fransiya, Turkiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda bo‘lajak mutaxassislarda zamonaviy shaxsga xos fazilatlar majmuining ishlab chiqilganligini alohida e’tirof etish lozim. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilishning tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ularning ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hisini kuchaytirish, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini жорий қилиш[5] ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu esa, talabalarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o‘rni va rolini ochib berish

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi o‘ziga xos pedagogik va psixologik shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, unda o‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari sanalgan, ma’naviy – axloqiy barkamollik, mas’uliyatlilik, hayotiy qadriyatlilik, ijtimoiy onglilik, o‘zini o‘zi nazorat qila olish, boshqaruv qobiliyati bilan bog‘liq kompetentlilik kabi ijtimoiy-psixologik fenomenlar mujassamlashgan. Shuning uchun, mazkur tushunchalar mohiyatini tahlil etishdan oldin, bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy faoliyati uchun o‘ta muhim sanalgan, kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun – mohiyatiga oydinlik kiritish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu tushuncha bo‘lajak o‘qituvchining o‘z sohasiga bo‘lgan motivatsion harakatlari majmui bilan ham xarakterlanadi.

Bu borada oliy ta’limda o‘qitiladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamda ma’naviy kompetenlik darajasini oshirib

---

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли Қарори. - https://lex.uz/docs/3286194

[3] Aksiologiya (yun. Axia — qimmat, qadr va logiya) — qadriyatlar to‘g‘risidagi fan (q. Qadriyat).

[4] Deontologiya (pedagogik majburiyat) – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsi, u tomonidan pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 27-mart, № 62 (7842).

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

borishda fanning aksiologik imkoniyatlarini yoritib berish hamda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini faollashtirishga doir vaziyatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kun o‘qituvchisi nafaqat o‘z fani bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarga yega bo‘lishi, balki o‘z o‘quvchilarga qadriyatlarning tashuvchisi sifatida rasmiy pedagogik mavqega, ijodiy qobiliyatga yega, maktab o‘quvchilarini izlash va umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltira olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishlari kerak.

Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar reja asosida zarur kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan birga ma’naviy kompetentli shaxs sifatida ham kamol topishlari, bolalar bilan ularning ma’naviy shakllanishi ustida ishlashga tayyor bo‘lishlari kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’limning barcha sohalarida gumanistik tendensiyaning kengayishi munosabati bilan pedagogik ta’limning mazmuni, kasbiy va qadriyat sifatlari masalasi o‘qituvchi va uning ma’naviyati, o‘qituvchining shaxsiyati va birinchi navbatda uning ma’naviy kompetentligi, kasbiy faoliyatda faqat inson mavjudligining ma’naviy boshlanishini, uning rivojlanishini tushunish jarayonida muhimligi o‘z isbotini topdi. Olimlarning bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarini pedagogik va psixologik jihatdan o‘rganib chiqib, tahlil qilganimizda ularning bu mavzuga oid xulosalari o‘ziga xos hamda umumiy jihatlarga egaligining guvohi bo‘ldik. Jumladan,

Rus falsafashunos olimi M.S. Kagan o‘zining asarida XXI asr nafaqat ma’naviyatni tahlil qilishni yaxshi biladigan o‘qituvchini talab qiladi, balki "ma’naviyat-bu shaxsning xususiyati" ekanligini ta’kidlaydi[6].

Ta’lim paradigmasida bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentligini rus olimlaridan M. V. Boguslavskiy, YE. V. Bondarevskaya, B. Z. Vulfov, G. P. Vyjletsov, V. I. Dodonov, V. P. Zinchenko, B. T. Lixachev, N. D. Nikandrov, Z. I. Ravkinlar o‘z ilmiy tadqiqot va ta’limotlarida talabalik davrida ma’naviyatning rivojlanishi intellektual va ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq ekanligini bunda pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish, kasbiy faoliyati bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy salohiyatini ochib berish va rag‘batlantirish jamiyat taraqqiyotining taqdiri kelajakka bog‘liq oliy pedagogika maktabining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlashadi.

Ma’naviy rivojlangan o‘qituvchi - bu yaratilgan dunyo qadriyatlarini tafakkuriga kiritib, o‘ziga singdira olgan shaxs tarixiy jarayonda insoniyat ongi bilan rivojlanish, dunyoga shaxsan munosabatda bo‘lgan muhim obyekt hisoblanadi. Aslida, ma’naviyatni rivojlantirish shaxsiyat va uning mentalitetini qurishning eng yuqori qadriyatlaridan chiqish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. O‘qituvchi uchun uning ruhiy dunyosi uning ma’naviy shakllanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ma’naviy dunyo insonning dunyoga, undagi o‘rni haqidagi qarashlari tizimida aks etadi va uning his-tuyg‘ulari va faoliyatida namoyon bo‘lishi ijodiy xarakterga ega.

Rus olimlaridan A.M.Novikovning fikricha, uzluksiz ta’lim jarayonida kasbiy ta’limning tizim tashkil qiluvchi mezoni sifatida bir butunlik, ya’ni elementlarning mexanik birlashuvi emas, balki barcha tizimni tashkil qiluvchilar va ta’lim jarayonlarining chuqur integratsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentlik darajasi yuzaga chiqadi.

Ma’lumki, zamonaviy jamiyatda ta’lim bu barcha muammolarini aks yettiruvchi ijtimoiy institut bo‘lib, oliy ta’lim o‘quv dasturlari fanlari orqali ushbu ko‘nikmaa egalik jarayonlarini faollashtirish, unda chuqur axloqiy va ma’naviy qadriyatlar o‘z aksini topishi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining yuksak axloqiy, mas’uliyatli, ijodiy, tashabbuskor, vakolatli fuqaro sifatida shakllantirish va rivojlantirishni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ma’naviy-axloqiy yo‘nalishdagi tarbiyaviy chora-tadbirlar shaxsni axloqiy rivojlantirish ta’limning asosiy vazifasidir.

A.N.Novikovning aytishicha, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentlik xususiyatlari asosida ularning ma’naviy kompetentligini rivojlantirib borishda quyidagilar o‘ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Boshqalar bilan erkin, samarali va natijali muloqot qila olish ko‘nikmalari;

[6] М.С. Каган О духовности // Вопросы философии. – 1985. – №9. – С. 92.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

2.Zamonaviy axborot texnologiyalari va media ta'limdan samarali foydalana olish malakalari;
3. Kasbiy va ijtimoiy sohaga oid ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish;
4. Iqtisodiy va sohaga oid yangiliklardan xabardorlik;
5.Ta'limga oid me'yoriy - huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatlik darajasidan xabardorlik;
6. Kommunikativ komptensiyaga egalik va xorijiy tillardan kamida bittasini mukammal bilish;
7. Atrofidagilarga ijobiy ta'sir eta olish va ularni o'zgartirishga nisbatan psixologik tayyorlik;
8. Insoniy fazilatlarni o'zida rivojlantirib bora olish hamda shaxsiy namuna bo'la olish kabilar.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatda ma'naviy kompetentlik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligi mezonlarini tushuntiruvchi uch ijtimoiy – psixologik jihati mavjud:

1. **Umumiy ilmiy yoki fundamental jihat** – mazkur jihat bo'lajak o'qituvchilarning pedagogika fanlari yo'nalishida bilimlarini, kompyuter bilan ishlashga oid kasbiy, hamda o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashdagi tajribalarini nazarda tutadi;
2. **Ijtimoiy-shaxsiy va kommunikativ** – ushbu jihat bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim sanalgan o'zaro do'stona munosabatga asoslangan tanqidiy fikrlash qobiliyatiga egalik, bag'rikenglik, jamoada ishlash ko'nikmasining mavjudligi kabilar bilan tushuntiriladi;
3. **Tashkiliy va boshqaruv xususiyatli jihat** bu – bo'lajak o'qituvchilarda shakllangan ishlarni rejalashtirish va ularni bajarish, nazariy va amaliy bilim hamda ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, sohaga oid turli ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qila olish ko'nikmalari, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga tez moslasha olish malakalari kabilar bilan tavsiflanadi.

Hamma zamonlarda ham ta'lim-tarbiya jarayonlari qonun yo'li bilan tartibga solinmagan bo'lsa-da, ta'lim-tarbiya ishiga qiziqish va ehtiyoj kuchaya borgan. Ta'lim tarbiya, ustozning o'rniga va ahamiyatiga yuksak baho berilgan. Turli davrlarda yashagan donishmandlar, mutafakkirlar ta'lim-tarbiya xususida ma'no-mazmun jihatidan bir-biridan farq qilmaydigan quyidagicha ta'riflarni yozishgan.

Masalan, I.Gyote: «Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi», degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, Seneka: «Bilimsizlik – kulfatdan qutulishning yomon vositasi», degan xulosani bergan. R.Emerson: «Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri – o'quvchiga hurmatda», deb e'tirof etsa, V.O.Disterving: «Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi», degan g'oyani ilgari surgan. I.Pestalotssi o'z asarida: «Maktabning maqsadi – tarbiya va faqat tarbiyadir», deb izohlagan bo'sa, A.Sent-Ekzyuperi: «Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi», degan mulohazani bayon etgan. Tarbiya masalasi hozirgi davrda yanada ko'proq dolzarb masalaga aylanib, ayniqsa, o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirish tarbiyaning kechiktirib bo'lmas yo'nalishidir.

Xulosa shuki, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, zamonaviy tarbiya metodlarining samaradorligini oshirish, o'qituvchi-tarbiyachilar mehnat faoliyatining o'zgarishi, ularning ish metodlarining takomillashishi, pedagogik tizimning tarbiyaviy o'zgarishini ta'minlaydi. Bu jarayonda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos muhim vazifalarni qo'yadi. Shu nuqtayi nazarda oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning maqsadli bo'lishi va ularni uzluksiz tashxis qilib borish ijobiy samara beradi. Uzluksiz ta'lim tizimidagi yangicha pedagogik texnologiyalar asosida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash ishlari yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bularning samaradorligi, uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv-tarbiya jarayoni bitta maqsad – talabalarni mafkuraviy tarbiyalash, mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladigan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kamolot darajasini aniqlashga yordam beradi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Новиков В.В. Социальная психология и экономика: Избранные произведения в 11-ти томах: Т.П. Ярославль: Изд-во МАПН, ЯрГУ, 2005. – С.165.
2.Мучински П.И. Психология, профессия, карьера. СПБ.: Питер, 2004. – С.45.
3.Юсупов Ф.М. Педагог, ищущий новое: штрихи к портрету // Вопросы психологии. 1991. - № 1. - С. 36 - 42.
4.Мешков Н.И.Становление учебно-профессиональной мотивации студентов в процессе подготовки педагогических кадров в университете. Авто-реф. . дра психол. наук. СПб, 1993. – 31 с.
5.Борисов В.В.,Ягупец С.Ю.Проектно-технологическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности будущего учителя технологий // Молодой ученый. — 2015. — №12. — С. 716-721.
6.Шарипова Ш. С. Профессиональная педагогическая компетентность учителя // Молодой ученый. — 2017. — №11. — С. 511-514.